

MAKTABGACHA BO'LGAN YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILLARINI O'QITISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI

Yuldasheva Sojidaxon Bahodirovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti

Turdaliyeva Shahnoza

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Filologiya fakulteti Ingliz tili

fani o'qituvchisi (maqola ilmiy rahbari)

samsungredmi26276@gmail.com

Tel:998975350416

Annotatsiya: Dunyo globalashuv jarayoni insonlardan o'z ona tilidan tashqari yana bir necha xorijiy tillarni o'rganishni taqozo qilmoqda. Hozirgi tadqiqotlar ushbu jarayonni erta yoshda boshlash samariliroq bo'lishini ko'rsatadi. Bizning yurtimizda ham ushbu masalaga qat'iy e'tibor qaratilgan, xorijiy tillarni o'qitishda xususan ingliz tilini o'qitishda dunyoning yetakchi tashkilot va universitetlar hamkorligida yangicha yondashuv asosida dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Kalit so'zlar : xorijiy til, erta yoshda til o'rganish, ta'limi o'yin, faoliyat, nozik vosita mahorati, ko'z-qo'l muvofiqlashuvi, faol ta'lim turlari, ingliz tilida blok o'ynash, rolo'yinlar, qo'lmehnati.

Kirish. Davlat qaramog'idagi hamda xususiy tarmoqdagi maktabgacha ta'lim muassasalarda ingliz tilini o'rgatish bo'yicha keng ko'lamli loyihamaloyi halar amalgalashuviga qarab oshirilmoqda. Ushbu maqolada chet tillarini xususan, ingliz tilini bolalikni ilk yoshida o'qitishda ta'limi o'yinlardan foydalanishning muhimligi va aynan turli o'yinlar orqali til ko'nikmalari oson o'zlashtirilishi yuzasidan fikrlar yoritilgan.. Hozirgi kunda barchamizga ma'lumki har bir bolaning taqdiri birinchi novbatda ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shu o'rinda uning ta'lim olish jarayoni va ilmiy salohiyati yuzasidan so'z borar ekan bog'cha va matab yoshida o'yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lganligi tufali bola atrof olamni ham o'yin orqali kashf etadi. Agar xorijiy tillarni ham o'yinga qorishtirgan xolda o'rgatilsa bu til ko'nikmalarining o'zlashtirilish samaradorligini bir necha barobarga oshiradi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan

hamjihatlikda, hamkorlikda o’z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo’qdir”. Ushbu fikrning mantiqiy davomi sifatida 2021 yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini” o’rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari tog’risida”gi Prezident Qarori chet tillarini o’rganish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Asosiy qismi. O’yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek ruhiy tetiklikni ham shakllanitirshga yordam beradi. O’yin bolani o’ziga bo’lgan ishonchini mustahkamlashiga, atrofdagilar bilan ijtmoyi munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko’mak beradi. Shu sababli ota —ona va tarbiyachi murabbiylar bolalarga imkon qadar ko’proq o’yin orqali o’rganishni targ’ib qilishlari kerak. Aynan o’yin orqali bolalar ta’lim oladilar va o’z iqtidorlarini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan vizual, eshitish, kinestetik kabi faol ta’lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Ta’limiy o’yinlar musiqa asboblarnini chalish, qo’shiqlar kuylash, she’r aytish, raqsga tushish, o’yin o’ynash, videolar tomosha qilish, qo’l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o’z ichiga oladi.

Xorijiy tillarni necha yoshdan o’rgangan ma’qul. Dunyo olimlari 10 yoshgacha bo’lgan davrda bola chet tilini oson oz’lashtirishishi bo’yicha yakdil fikr bildirishgan. Bu davrda bola tillarni tushunib emas balki mexanik tarzda o’rganadi shuning uchun xorijiy tilni qollanishi va talaffuzi oson o’zlashtiriladi. Ammo shunday bo’lsada bolaning har qanday tilning tovushlarini taqlid qilish qobiliyati bilan tug’ilshini hisobga olsak bu jarayonni ertaroq boshlash fikridagilar ham ko’pchilikni tashkil qiladi. Inson miyasini o’rganilish bo’yicha olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida, chaqaloq tug’ilishidan uch yoshigacha bo’lgan davr bola rivojlanishning eng muhim davri ekanligi isbotlangan. Shunigdek uch yoshli bolaning miyasi katta yoshdagи odam miya faoliyatidan ikki karra tezroq va yaxshiroq ishlashi ham aniqlangan. Shuning uchun ingliz mutaxassislarining fikricha bolaning birinchi yildayoq ikkinchi tilni tanishtirib borish uni oson o’zlashtirishiga yordam bo’lishini ta’kidlashadi. Ammo har qanday xolatda xam bolaning psihologik va til o’zlashtirish qobiliyatini hisobga olish nihoyatda muhim omil ekanligini unitmasligimiz kerak.

O’yining ahamiyati Bola tabiatan juda qiziquvchan bo’ladi va u atrof olamni o’rganish uchun barcha xis tuyg’ularini ishga soladi. O’yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg’uloti bo’lganligi bois, bolaga atrof olam va undagi barcha zaruriy bilim va ko’nikmalar o’yin vositasida tanishtirib borilsa, ko’nikmalarni o’zlashtirish samaradorligi bir necha barobarga oshadi. O’yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek, u ruhiy tetiklikni ham shakllanitirshga yordam beradi. O’yin bolani o’ziga bo’lgan ishonchini mustahkamlashga, atrofdagilar bilan ijtmoyi munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko’mak beradi. Shu sababli ota — ona va tarbiyachi murabbiylar bolalarga imkon qadar ko’proq o’yin orqali o’rganishni targ’ib

qilishlari kerak. Aynan o'yin orqali bolalar¹ ta'lim oladilar o'z iqtidorlarini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan vizual, eshitish, kinestetik kabi faol ta'lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta'limiylar o'yinlar musiqa asboblarnini chalish, qo'shiqlar kuylash, she'r aytish, raqsga tushish, o'yin o'ynash, videolar tomosha qilish, qo'l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o'z ichiga oladi. Rangli ko'rgazmalar, kartalar, musobaqalar, rol o'yinlar, turli shakllar yasash kabi o'yinlar bolalarni jismoniy va aqliy faoliyatini rivojlantiruvchi eng qiziqarli usullardan biridir.

Chet tili darsida o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning og'zaki muloqot va psixologik tayyorgarlik kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi. O'yinlar vositasida o'rganish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bunday holda, o'yinlar albatta bir qator talablarga javob berishi kerak:

1. Ma'lum bir ta'lim muammolarini hal qilishga qaratilgan bo'lisi;
 2. Darsda berilgan o'quv ishining ritmini buzmaslik uchun "boshqariladigan" bo'lish;
 3. Darsdagi stressni yengillashtirish va o'quvchilar faolligini rag'batlantirish;
 4. Avvalo o'yin lahzalarini anglashi kerak, o'quv effekti fonda qoladi;
 5. Barcha o'quvchilarni o'yin faoliyatiga jalb qilish imkoniyatiga ega bo'lish.
- O'yinlardan foydalanan ekanmiz, ular bu jarayonda ma'lum bir funksiyalarga ham ega bo'lisi lozim. Quyida ularni ko'rib chiqamiz:
1. Ta'lim funksiyasi. O'yin chet tilini o'rganish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, umumiylarini samaradorligi va qobiliyatini rivojlantiradi.
 2. Tarbiyaviy funksiyasi. O'yin o'zaro yordam va o'zaro qo'llab-quvvatlash tuyg'usini rivojlantiradi.
 3. Ko'ngil ochish funksiyasi. O'yin darsda qulay, g'ayrioddiiy muhit yaratishga yordam beradi.
 4. Kommunikativ funksiya. O'yin o'rganuvchilarni birlashtiradi va xorijiy tilda o'zaro munosabatda bo'lishga yordam beradi.

Psixologlar inson hayotini uchta asosiy davrga ajratishadi: o'yin, ta'lim va mehnat. Ta'lim bosqichini boshdan kechirayotganida ham bola ruhiyatidan va xatti-harakatlaridan o'yinlarga, kulguli mashg'ulotlarga qiziqishni osongina sezib olish mumkin. Pedagogika sohasi yetuk olimlari ham o'yinlar orqali o'rganishni bola ta'lim olishining tabiiy yo'li sifatida tan olishgan. Zerikarli Grammatik mashqlar, uzunduzun matnlar va tushunish qiyin bo'lgan qoidalar ba'zan bolani chet tilini o'rganish mobaynida tushkunlikka tushirib qo'yishi mumkin. Ayniqsa, bu holatni tajribamizda yuqori sinf o'quvchilarida ko'p kuzatganmiz. Bunday vaziyatda o'quvchilar zerikishni

¹Qodirova F.R., To'shpo'lat Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika, Toshkent, 2029
234-236

²Guseva L.P. Biz o'ynaymiz, o'qitamiz, o'zlashtiramiz - biz ingliz tilini bilishni xohlaymiz. - Rostov n / a: Feniks, 2009 y.

boshlaydi va bu keyinchalik o'qituvchi faoliyatiga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin. Zero, har bir o'qituvchining muvaffaqiyati u ta'lif bergan o'quvchilarning bilim darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ustozlarimiz esa uyalmasdan, aktyorlik qobiliyatidan to'liq foydalanib, tez-tez darslarda turli xil o'yinlardan foydalanishlari kerak. Ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish ta'lif berish jarayonini muhim va ruhlantira oluvchi, ijobiy va natijaga boy tajribaga aylantiradi.


Mavzuga oid o'yinlarni izlash shart emas, o'quvchilar orasida mashhur bo'lgan o'yinlarni ta'lif jarayoniga moslashtirish mumkin. Dunyoqarashi keng o'qituvchi esa har bir mavzu uchun munosib o'yin topa oladi. Quyida dars jarayonini qiziqarli mashg'ulotga aylantira oladigan bir nechta o'yinlar haqida ma'lumot berib o'tmoqchiman:

XULOSA VA TAKLIFLAR

Darvoqe, interaktiv metodlar o'quvchini sinfning faol a'zosi bo'lishga, mustaqil fikrlashga, miyasidan foydalanishga undaydi, natijada uzoq muddatli xotira saqlanib qoladi. O'quvchilarning nafaqat bilimi, balki qiziqishi, kuchi, bilimi, jamoaviyligi, fikr erkinligi ham ortadi. Malumki, barcha turdag'i metodlarda muayyan mavzu atrofida muammo yoki savol qo'yiladi va o'quvchilar juftlashtiriladi. Har bir o'quvchiga to'g'ri xulosa chiqarishlari uchun etarli vaqt beriladi va o'quvchilarga o'z xulosalarini o'z ovozlari bilan baham ko'rishlariga imkon beriladi. Interfaol metodlarning quyidagi afzalliklari mavjud. Birinchidan metodlar bolalarga chet tilidan foydalangan holda birlari bilan yanada samarali muloqot qilish imkonini beradi, ularning madaniyatlararo bilimlarini kengaytiradi. Ikkinchidan, tabiiy sharoitlarda chet tilida muloqot qilish malakalarini, tafakkurini rivojlantiradi va ijodiy salohiyatini ochadi. Uchinchidan, talabaning motivatsiyasi va o'ziga ishonchini oshiradi, barcha til ko'nikmalarini o'rgatadi. Turtinchidan, til kompetensiyasini va tabiiy og'zaki nutq ko'nikmalarini oshiradi, turli tillarga, hayotning turli sohalarida ulardan foydalanishga qiziqishni rivojlantiradi. Umid qilamanki, ingliz tili mashg'ulotlarida o'yinlardan foydalanish haqidagi fikrlarim keying kasbiy faoliyattingizda yordamchi bo'la oladi. Dars jarayonida o'yinlardan foydalanishga imkoniyat topping.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida (PQ-1875-son)IXalq so'zi gazetasi. 2012yil. 12-dekabr.
- Muminova, F. M. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish F. M. Muminova. — 2020.
- M. Berdiyeva, S. Bo'ranova Maktabgacha va boshlang'ich ta'lifda nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari.
- <https://blog.xabar.uz/post/maktabgacha-ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o-qitishning-zamo>

- 
5. <https://goaravetisyan.ru/uz/sekrety-obucheniya-doshkolnikov-angliiskomu-vozrastnye/>
 6. <https://spbttp.ru/uz/igra-aktivnyi-metod-obucheniya-nemeckomu-yazyku-aktivnye-metody>
 7. <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-oqitishning-samarali-usullari-nemis-tili-misolida>
 8. Qayumova, Mohinur Murodulayevna. "THEORETICAL-METHODOLOGICAL ANALYZE OF COSMOS AND INDIVIDUAL ON CONTEXT OF EXPERIMENTAL SCIENCE." Интернаука 28 (2018): 77-79.